
Rishtonda Ustozlar milliy forumi bo'lib o'tdi

📌 Bugun tumanimizdagi “Fayz” tantanalar majmuasida tumanimizning ilg'or pedagoglari, fan mutaxassislari, ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida 2022-2023 o'quv yili oldidan Ustozlar milliy forumi bo'lib o'tdi.

📌 O'tgan o'quv yili davomida erishilgan natijalarni tahliliy sarhisob qilish va joriy yilda tuman xalq ta'limi sohasi oldida turgan vazifalarni belgilab olish ko'zda tutilgan tadbirda tuman hokimi o'rinbosarlar va sektor rahbarlari ishtirok etdilar.

📌 Tadbirni ochib bergan tuman hokimining birinchi o'rinbosari Aziz Mustafoulov ustozlarning inson hayotidagi muhim o'rni va rolga urg'u berib, ilm o'rgatish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ulug' fazilat ekanini ta'kidladi.

📌 Aziz Mustafoulov o'z so'zida Davlatimiz rahbari boshchiliklarida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ustozlarning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar mohiyatiga alohida e'tibor qaratdi.

📌 Tadbirda ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan, tumanimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan, faol, tashabbuskor va izlanuvchan, munosib natijalarga erishayotgan ko'plab ta'lim fidoyilari viloyat hokimining faxriy yorliqlari va tashakkurnomalari, sovg'alari bilan taqdirlandilar.

📌 Tumanimizning taniqli san'atkorlari ishtirokidagi kontsert dasturi tadbir ishtirokchilariga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-24 16:57:01